

# Buxoro viloyatida kichik tadbirkorlik

**Dastlabki ma'lumotlar**

**2020- yil yanvar-dekabr**




**2020- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi**

- 2020- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining **YaHM** dagi ulushi **74,7** % ni tashkil etdi.
- Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga **17,3** birlikni tashkil qildi.
- 2020- yilning yanvar-dekabrida **5928** mingta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **3,7** foizga kam

## 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da

Savdo
34,5 %

Sanoat
18,3 %

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi
16,7 %

YASHASH VA OVQATLANISH BOYICHA XIZMATLAR
9,7%

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirmalar savdoda - 2044 ta, sanoatda - 1086 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida - 992 ta, yashash va ovqatlanishda - 575 ta, qurilishda - 353 ta, tashish va saqlashda - 264 ta tashkil etilgan.

## Yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari

| | O'lchov birligi | 2019- y. | 2020- y. | Farqi (+;-) |
|---|---|---|---|---|
| Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni | birlikda | 19981 | 24809 | 4828 |
| Yangi tashkil etilgan kichik Korxona va mikrofirmalar soni | birlikda | 6154 | 5928 | -226 |
| *Kichik tadbirkorlikning ulushlari:* | | | | |
| YaHM | % | 73,5 | 74,7 | 1,2 |
| Sanoat | % | 35,1 | 34,8 | -0,3 |
| Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi | % | 98,6 | 98,2 | -0,4 |
| Investitsiya | % | 50,7 | 42,1 | -8,6 |
| Qurilish | % | 86,4 | 79,4 | -7,0 |
| Chakana savdo | % | 83,5 | 84,2 | 0,7 |
| Xizmatlar | % | 70,1 | 66,1 | 4,0 |
| Yuk tashish | % | 92,2 | 89,3 | -2,9 |
| Yuk aylanmasi | % | 85,8 | 84,0 | -1,8 |
| Yo'lovchi tashish | % | 94,7 | 96,1 | 1,4 |
| Yo'lovchi aylanmasi | % | 95,5 | 96,9 | 1,4 |
| Eksport | % | 68,6 | 43,4 | -25,2 |
| Import | % | 51,0 | 46,7 | -4,3 |



## 2020- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining YaHM va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari, % da

**YaHM**
74,7 %

**Savdo**
84,2%

**Sanoat**
34,8%

**Qurilish**
79,4%

**Investitsiya**
42,1%

**Export**
43,4%

**Xizmatlar**
66,1%

**Import**
46,7%

## Tuman va shaharlar bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda

| | 2019- yil yanvar-dekabr | 2020- yil yanvar-dekabr | farqi (+;-) |
|---|---|---|---|
| **Buxoro viloyati** | **6154** | **5928** | **-226** |
| *shaharlar:* | | | |
| Buxoro | 1800 | 1232 | -568 |
| Kogon | 301 | 330 | 29 |
| *tumanlar:* | | | |
| Olot | 206 | 262 | 56 |
| Buxoro | 435 | 528 | 93 |
| Vobkent | 262 | 393 | 131 |
| G‘ijduvon | 685 | 603 | -82 |
| Kogon | 283 | 404 | 121 |
| Qorako‘l | 283 | 329 | 46 |
| Qorovulbozor | 146 | 175 | 29 |
| Peshku | 371 | 411 | 40 |
| Romitan | 625 | 543 | -82 |
| Jondor | 421 | 398 | -23 |
| Shofirkon | 336 | 320 | -16 |

### 2020- yil yanvar-dekabrida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning shahar va tumanlar bo‘yicha ulushi, % da



2020- yilning yanvar-dekabr oylarida hududlar bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko‘p ulushi Buxoro sh.– 20,9%, G‘ijduvon tumani– 10,2%, Romitan tumani - 9,2%, Buxoro tumani – 8,9%, Peshku tumani – 6,9%, Kogon tumani– 6,8%, Jondor tumani – 6,7%, Bobkent tumani - 6,6% hissalariga to‘g‘ri keldi.

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda

| | 2019- y.yanvar-dekabr | 2020- y.yanvar-dekabr | farq. (+;-) |
|---|---|---|---|
| **Jami** | **6154** | **5928** | **-226** |
| **Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi** | 530 | 992 | 462 |
| **Sanoat** | 1234 | 1086 | -148 |
| **Qurilish** | 611 | 353 | -258 |
| **Savdo** | 2181 | 2044 | -137 |
| **Tashish va saqlash** | 269 | 264 | -5 |
| **Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar** | 703 | 575 | -128 |
| **Axborot va aloqa** | 54 | 62 | 8 |
| **Sog‘likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish** | 81 | 104 | 23 |
| **Boshqa faoliyat turlari** | 491 | 448 | -43 |
| | | | |

***Ma’lumot uchun****: 2020– yilning yanvar-dekabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko‘p salmog‘i, birlikda:*

Savdoda

2044 ta

Sanoatda

1086 ta

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida

992 ta

Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar

575 ta

## Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar bo‘yicha eng yuqori o‘ringa ega bo‘lgan shahar va tumanlar, birlikda

| | 2019- yil yanvar-dekabr | 2020- yil yanvar-dekabr | Farqi(+;-) |
|---|---|---|---|
| **Buxoro sh.** | 1800 | 1232 | -568 |
| **G‘ijduvon** | 685 | 603 | -82 |
| **Romitan** | 625 | 543 | -82 |
| **Buxoro** | 435 | 528 | 93 |
| **Peshku** | 371 | 411 | 40 |
| **Kogon** | 283 | 404 | 121 |
| **Jondor** | 421 | 398 | -23 |
| **Vobkent** | 262 | 393 | 131 |
| **Kogon sh.** | 301 | 330 | 29 |
| **Qorako‘l** | 283 | 329 | 46 |

2020- yilning yanvar–dekabrida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko‘pi viloyat bo‘yicha Buxoro shahrida – 1232tani tashkil etdi.

### Yangi tashkil etilgan korxonalar bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lgan shahar va tumanlar, birlikda





2020- yil yanvar-dekabr oylarida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1000** aholiga nisbatan 17,3 birlikni tashkil etdi.

**Buxoro viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), yanvar-dekabr holatiga koʻra***




2020- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga shahar va tumanlar boʻyicha eng yuqori koʻrsatkich Qorovulbozor tumanida - 43,4 birlik, Buxoro shahrida - 27,2birlik, Kogon tumanida - 25,8 birlik, Romitan tumanida - 20,4 birlik, Buxoro tumani - 19,1 birlik, Peshku tumani - 17,4 birlik, Kogon sh. - 16,9birlikni tashkil etgan. Qorakoʻl tumanida esa ushbu koʻrsatkich eng past boʻlib - 10,0 birlikka toʻgʻri keldi.

** Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xoʻjaliklarini qoʻshgan holda)*

## 2020– yilning yanvar-dekabrida shahar va tumanlar bo‘yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)*




* *Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarini qo‘shgan holda)*

## 2020- yilning yanvar-dekabrida har 1000 aholiga to‘g‘ri keladigan tadbirkorlik subyektlari soni eng ko‘p tashkil etgan shahar va tumanlar, birlikda*




2020- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga tuman va shaharlar bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Qorovulbozor tumanida - 43,4 birlik, Buxoro sh.- 27,2 birlik, Kogon tumanida - 25,8 birlik, Romitan tumanida - 20,4 birlik, Buxoro tumanida - 19,1 birlik, Peshku tumanida - 17,4 birlik, Kogon sh.- 16,9 birlik, Jondor tumanida esa - 16,6 birlikni tashkil etdi.

** Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarini qo‘shgan holda)*

## Faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)

**Eng yuqori ko‘rsatkich**
- Qorovulbozor tumani
- 43,4 birlik

**O‘rtacha ko‘rsatkich**
- Kogon shahar
- 16,9 birlik

**Eng past ko‘rsatkich**
- Qorako‘l tumani
- 10,0 birlik.

## Kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushini ko‘payish dinamikasi, yanvar-dekabr holatiga ko‘ra, % da

2020 - yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi **74,7 %** ni tashkil qildi. (2019-yilning yanvar-dekabrida **73,5 %**).

YaHMning o‘tgan yilga nisbatan ko‘payish yirik korxonalar ulushining pasayishi bilan izohlanadi.

80,3% — 2018 y.

73,5% — 2019 y.

74,7% — 2020 y.

## Kichik tadbirkorlikning iqtisodiyot tarmoqlaridagi ulushi (umumiy hajmiga nisbatan % da)




## 2020- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlikning shahar va tumanlar kesimida iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridagi ulushi, (%) da

| | Sanoat | Qurilish | Xizmatlar | Investitsiya |
|---|---|---|---|---|
| **Buxoro viloyati** | **34,8** | **79,4** | **66,1** | **42,1** |
| *shaharlar:* | | | | |
| Buxoro sh. | 59,1 | 87,6 | 43,6 | 42,8 |
| Kogon sh. | 43,8 | 37,9 | 80,8 | 60,2 |
| *tumanlar:* | | | | |
| Olot | 48,9 | 80,7 | 85,6 | 22,6 |
| Buxoro | 68,7 | 86,5 | 80,6 | 77,9 |
| Vobkent | 100,0 | 87,4 | 83,3 | 91,9 |
| G‘ijduvon | 50,6 | 97,4 | 84,1 | 57,8 |
| Kogon | 98,4 | 67,2 | 85,7 | 79,3 |
| Qorako‘l | 55,2 | 87,1 | 80,6 | 51,5 |
| Qorovulbozor | 1,2 | 18,4 | 45,7 | 63,3 |
| Peshku | 55,5 | 100,0 | 77,2 | 86,4 |
| Romitan | 63,8 | 81,7 | 78,8 | 11,8 |
| Jondor | 76,9 | 100,0 | 77,7 | 88,9 |
| Shofirkon | 84,3 | 94,0 | 78,3 | 87,5 |

Shahar va tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlikning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi eng ko'p:

***Sanoatda-***

Vobkent (100%),
Kogon (98,4%),
Shofirkon (84,3%),
Jondor (76,9 %),
Buxoro (68,7%) va
Romitan (63,8%)
tumanlarida.

***Qurilishda-***

Peshku (100%),
Jondor (100 %),
G'ijduvon(97,4%),
Shofirkon(94,0 %),
Buxorosh.(87,6 %) va
Vobkent(87,4 %),
tumanlarida.

***Xizmatlarda-***

Olot (85,6 %),
G'jduvon (84,1 %)
Qorako'l (80,6 %),
Buxoro (80,6 %),
Romitan (78,8 %)va
Shofirkon (78,3 %)
tumanlarda.

2020- yil yanvar-dekabr oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot(ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi **100,2** million AQSh dollarini yoki umumiy eksport hajmining **43,4%** ni tashkil etdi.



## Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jami eksportdagi ulushi, %da




2020- yil yanvar-dekabr oylarida hududlar boʻyicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng koʻp ulushi Vobkent tumani – 100%, Buxoro tumanida – 98,1%, Jondor tumanida – 8,8%, Kogon tumanida – 65,4%, Shofirkon tumanida – 55,4%, Buxoro sh. – 52,3%ni, eng past koʻrsatkich Gʻijduvon tumanida – 15,4%ni tashkil etdi.

2020- yil yanvar-dekabr oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi 280,7 million AQSh dollarini yoki umumiy importning 46,7% ini tashkil etdi.



## Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da




2020- yil yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jamiga nisbatan eng yuqori ulushi Shofirkon tumanida– 100%, Jondor tumanida – 96,4 %, Kogon tumanida – 94,8%, Vobkent tumanida – 91,1%, Buxoro tumanida – 86,1%. Eng past ko‘rsatkich Qorovulbozor tumanida - 3,0 % ni tashkil etdi.



2020- yil yanvar-dekabr oylarida kichik biznes subektlari tomonidan **6104,7** milliard so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

## 2020- yilning yanvar-dekabrida shahar va tumanlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi




Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Buxoro shahri (1270,1mlrd. so‘m), Kogon tumani (746,5mlrd. so‘m), G‘ijduvon tumani (642,5mlrd. so‘m), Jondor tumani (554,6 mlrd. so‘m) va Shofirkon (540,7 mlrd. so‘m) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keladi. Qorovulbozor tumanida (99,mlrd.so‘m) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo‘lib qolmoqda.




Dekabr oylarida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik biznesning ulushi **34,8** foizni tashkil etdi.

## 2020- yil yanvar-dekabr holatiga shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, %da




Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Vobkent tumani (100%), Kogon tumani (98,4%), Shofirkon tumani (84,3%), Jondor tumani (76,9%), Buxoro tumani (68,7%), Romitan tumani (63,8%), Buxoro sh. (59,1%), Peshku tumani (55,5%), Qorako‘l tumani (55,2%) va G‘ijduvon (50,6%) tumanlarida tashkil etdi. Qorovulbozor tumani (1,2%) kichik tadbirkorlikning ulushi eng past bo‘lib qolmoqda.



2020- yil yanvar-dekabr oylarida kichik biznes subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **9950,0** mlrd. so‘mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **84,2%** ini tashkil etdi. O‘sish sur’ati 2019- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan **101,3** foizni tashkil qildi.

## 2020- yilning yanvar- dekabrida shahar va tumanlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va o‘sish sur’ati




Shahar va tuman kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Buxoro shahri (2837,9 mlrd. so‘m), G‘ijduvon (1897,2mlrd. so‘m), Qorako‘l (890,1 mlrd. so‘m), Romitan (720,6mlrd. so‘m),Jondor (685,5 mlrd. so‘m) va Buxoro (612,4 mlrd. so‘m) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keladi.




2020- yil yanvar-dekabr oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi 4275,2 milliard so‘mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining 79,4 foizini tashkil etdi. O‘sish sur‘ati 2019- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 102,3 foizni tashkil qildi.

## 2020- yilning yanvar- dekabrida shahar va tumanlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o‘sish surati






Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Buxoro sh.(1093,4 mlrd.so‘m), G‘ijduvon (427,6mlrd. so‘m), Buxoro (397,0mlrd. so‘m), Jondor (341,9 mlrd. so‘m), Kogon (316,3 mlrd. so‘m), Romitan (309,7 mlrd.so‘m) hamda Peshku (268,9 mlrd.so‘m) tumanlarida qayd etildi.

2020-yil yanvar-dekabr oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan **6527,7** mlrd. so‘mlik xizmatlar ko‘rsatildi yoki ko‘rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining **66,1** ini tashkil qildi. 2019- yilning yanvar-dekabriga nisbatan **100,0 %** ni tashkil etdi.



## 2020- yilning yanvar- dekabrida shahar va tumanlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va o‘sish sur’ati




Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p xizmatlar hajmi Buxoro shahri (1666,6mlrd. so‘m), G‘ijduvon (1099,4 mlrd. so‘m), Buxoro (453,0mlrd.so‘m), Romitan (413,9 mlrd.so‘m),Vobkent (411,5mlrd. so‘m), Peshku (400,0mlrd.so‘m) va Jondor(388,9, mlrd. so‘m) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keladi.




2020- yil yanvar-dekabr oylarida avtomobil transportida yuk tashishining umumiy hajmida kichik biznesning ulushi **89,3** foizni tashkil etdi. 2019- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan **0,1 %** ga pasayish kuzatildi.

2020- yil yanvar-dekabr oylarida,avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik biznesning ulushi **84,0** foizni tashkil etgan bo‘lib, 2019- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan **0,3** foizga pasayish kuzatildi.







2020- yil yanvar-dekabr oylarida, avtomobil transportida yo‘lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik biznesning ulushi **96,1** foizni tashkil etib, bu esa 2019- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan **9,5** foiz pasayishiga olib keldi.

2020- yil yanvar-dekabr oylarida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik biznesning ulushi **96,9** foizni tashkil etib, 2019- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan **9,6** foizga pasayish kuzatildi.




Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha 2020- yil IVchorak yakunlariga ko‘ra, kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan taqdim etilgan oxirgi yillik hisobotda mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumi mavjudlari bo‘yicha tanlanma kuzatuvlar o‘tkazildi. Unda **1029** ta respondentlar ishtirok etdi.



## 2020- yil IV chorak bo‘yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi*, % da




Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida – 7,4 % (76ta), sanoatda – 15,8 % (163 ta), qurilishda – 10,4% (107 ta) , savdoda – 33,1 % (340 ta),xizmatlar sohasida - 33,3% (343 ta).

** oxirgi yillik statistik hisobotga muvofiq, mahsulot (tovarlar, ishlarva xizmatlar) sotishdan sof tushumga ega bo‘lgan kichik korxona va mikrofirmalar bo‘yicha.*

## 2020- yil IV chorak bo‘yicha oxirgi yillik hisobotda mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumi bo‘lgan, kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning shahar va tumanlar bo‘yicha taqsimlanishi, birlikda




## 2020- yil IV chorak bo‘yicha oxirgi yillik hisobotda mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumi bo‘lgan kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning shahar va tumanlar bo‘yicha taqsimlanishi, % da



Kichik korxona va mikrofirmalarning 2020- yilning IV choragida, oxirgi hisobot yilida mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushumi mavjudlari bo‘yicha o‘tkazilgan kuzatuv natijalariga ko‘ra o‘tgan yilning shu davriga nisbatan iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarning ulushida deyarli barcha iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha pasayish kuzatildi.

Shu bilan birga, o‘tgan yil bilan taqqoslaganda sanoat sohasida 30,1 punktga, qurilishda 18,8 punktga, savdo sohasida 23,5 punktga, xizmatlar sohasida 30,4 punktga iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalar ulushining ko‘payishi kuzatildi.

Joriy yilning IV choragida,o‘tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda sanoat sohasida 4,3 punktga, savdo sohasida 1,0 punktga, xizmatlar sohasida 3,0 punktga iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalar ulushining ko‘payishi kuzatildi.



**Oxirgi hisobot yilida sof tushumi mavjud bo‘lgan kichik korxona va mikrofirmalarning 2019-2020- yillar IV choragida iqtisodiy vaziyatini baholash,% da**



Kichik korxona va mikrofirmalarning 2020- yil IV choragida, oxirgi hisobot yilida mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar)sotishdan tushgan sof tushumi mavjudlari bo'yicha o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, o'tgan yilning mos davriga nisbatan yaqin uch oyda iqtisodiy vaziyatni yaxshilanishiga ishongan korxonalar ulushi deyarli barcha iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kamaygan.

Shu bilan birga, o'tgan yil bilan taqqoslaganda, sanoat korxonalarida 8,2 punktga, qurilish korxonalarida 0,7 punktga, savdo sohasida 2,6 punktga, xizmatlar sohasida 3,8 punktga, yaqin uch oyda ularning iqtisodiy vaziyati o'zgarishsiz qolishiga ishongan korxonalar ulushi o'sdi.

Yaqin kelajakda iqtisodiy vaziyat yomonlashishini baholagan korxonalar ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi 1,1punktga,sanoat sohasida 0,2 punktga, savdoda 0,5 punktga,ximatlar sohasida 0,7punktga oshdi.



**Oxirgi hisobot yilida sof tushumi mavjud bo'lgan kichik korxona va mikrofirmalarning 2019-2020- yillar IV choragida iqtisodiy vaziyatining yaqin uch oy uchun baholanishi,% da**





2020- yilning **IV** choragi yakunlariga ko‘ra yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati kuzatildi, unda iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha **92** ta respondentlar qatnashgan. Shundan qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi – 17 ta (18,5%), sanoat korxonalari - 16 ta (ishtirok etgan respondentlar umumiy sonining 17,4 %i), qurilish –6 ta (6,5%), savdo – 32 ta (34,8 %) va xizmatlarda – 21 ta (22,8%) subyekt ishtirok etdi.

## 2020- yilning IV choragi bo‘yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi, % da



## 2020- yilning IV choragi bo‘yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning shahar va tumanlar bo‘yicha taqsimlanishi, birlikda




## 2020- yilning IV choragi bo‘yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning shahar va tumanlar bo‘yicha taqsimlanishi, % da



Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar kuzatuvi ma'lumotlariga ko'ra, 2020- yilning IV choragida o'tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslaganda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalar ulushida barcha faoliyat turlari bo'yicha pasayish kuzatildi.

Shu bilan birga, joriy yilning IV choragida o'tgan yilning shu davriga nisbatan iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalar ulushida ham deyarli barcha iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha pasayish kuzatildi.

Joriy yilning IV choragida, o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda qishloq,o'rmon va baliqchilik xo'jaligi korxonalarida 9,6 punktga, sanoat sohasida 44,4 punktga,qurilishda 27,8 punktga, savdoda 8,7 punktga xizmatlar sohasida 16,8 punktga iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalar ulushining ko'payishi kuzatildi.

**2019-2020- yillarning IV choragida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy vaziyatini baholash, % da**



Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar kuzatuvi ma'lumotlariga ko'ra, 2020- yilning IV choragida o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda, yaqin uch oy ichida iqtisodiy vaziyatni yaxshilanishiga ishongan korxonalar ulushi deyali iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kamaygan.

Shuningdek, o'tgan yil bilan taqqoslaganda, yaqin uch oydagi iqtisodiy vaziyat o'tgan yilga nisbatan o'zgarmaydi deb hisoblangan korxonalar ulushi qurilish 5,6 punktga, savdoda 4,5 punktga, xizmatlar 8,1 punktga oshdi. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi korxonalarida 14,0 punktga, sanoat korxonalarida esa 14,5 punktga kamaydi.

Yaqin kelajakda iqtisodiy vaziyatni yomonlashishni baholagan korxonalar ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi korxonalarida 17,7 punktga, sanoat sohasida 12,5 punktga, qurilishda 16,7 punktga,savdoda 9,4 punktga xizmatlar sohasida 0,8 punktga iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalar ulushining ko'payishi kuzatildi.

## 2019-2020- yilning IV choragida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning yaqin uch oyda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



Ishbilarmonlik muhiti
kuzatuvlari va tadbirkorlikni
rivojlantirish statistikasi bo‘limi
Tel.: (65) 223-81-96